

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

*Bazarbayeva Zuxra
Bekbergenova Zamira
Jaqsilikova Ulbosin*

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalar*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilining o'qitilishi ahamiyati, ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalariga to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: metod, metodika, ona tili, xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish.

Metod aslida yunoncha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, “bilish va tadqiqot yo'li”, “nazariya”, “ta'limot” kabi ma'nolarni bildiradi¹. Metodika (yun. “methodike”) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot² bo'lib, ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandır.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga ona o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. O'qitishning vazifalari va mazmunini aniqlaydi. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta'lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanmalar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari, mashqlar va yozma ishlarning izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni “Qanday o'qitish kerak?” savoliga javob tayyorlab beradi.

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 5-жилд, 613-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “ЎМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006.– 2-жилд, 582-б.

3. O'quvchilarga ona tilidan bilim berish va ko'nikma hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni hal qiladi, ya'ni "Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?" savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni o'rganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbiquan (muvofiq ravishda) o'rgatadi. SHu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi.

Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang'ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursning (xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish va hok.) dasturini belgilash va asoslash;

b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

v) ona tilidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishi va puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehni, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o'ylashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish;

g) ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o'quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish.
2. O'qish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3. Grammatika, fonetika, imlo va so'z yasalishini o'rganish metodikasi. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

4. Nutq o'rtirish metodikasi. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, hozirda o'quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta'limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar uyushtirilmogda. SHunday qilib, fan sifatida ona tili o'qitish metodikasining o'z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo'lib, bir qator fanlar o'rtasida uning ma'lum o'rni bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormogda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 5-жилд, 613-бет.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “ЎМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006.– 2-жилд, 582-б.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21- 33 – betlar.
4. A.Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. Т.: O'qituvchi, 1992.
5. A.Fulomov. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. Т.: O'qituvchi, 1992.